


# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

**2026-YIL**  
**IYUN/6-SON, III-QISM**



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afrovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

**Kalonova Moxigul Baxritdinovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Norboyev Odil Abrayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Pardaev Umidjon Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich**, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi  
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari  
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash  
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari  
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti  
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi  
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari  
05.01.07 – Matematik modellashtirish  
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt  
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik  
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari  
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti  
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash  
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi  
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari  
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari  
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi  
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish  
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)  
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar  
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari  
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik  
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti  
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi  
08.00.02 – Makroiqtisodiyot  
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti  
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti  
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti  
08.00.06 – Ekonometrika va statistika  
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit  
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit  
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti  
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti  
08.00.11 – Marketing  
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot  
08.00.13 – Menejment  
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari  
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti  
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya  
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING INSTITUTSIONAL TO'SIQLARI VA IQTISODIY OQIBATLARI .....	10
<b>I. R. Berdikulova</b>	
KIMYO SANOATINING IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI VA TARMOQ KORXONALARIDA BOSHQARUV HISOBI .....	14
<b>Onorboev Sh.M.</b>	
A WEEKLY LOGISTICS-CONTROLLING SYSTEM FOR EXPORT SUPPLY CHAINS: CORRIDOR-LEVEL EVIDENCE FROM A TEXTILE EXPORTER.....	26
<b>Mukhammadiyahaminova Shakhzoda Sherzodovna</b>	
FOTOVOLTAIK-TROMBE DEVORI ASOSIDA HAVONI ISITISH, TOZALASH VA ELEKTR ENERGIYASI ISHLAB CHIQRISH JARAYONLARINI INTEGRATSIYALASHNING ILMIY-METODIK TAHLILI.....	36
<b>Rahimova Volida Karim qizi</b>	
XAVFSIZ HAYOT TARZINI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM VA TARBIYANING O'RNI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY MODEL.....	42
<b>Nigmatjonov Sardor Abdumannovich</b>	
РАЗВИТИЕ МЕТОДОЛОГИИ ВНЕДРЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ СТРАТЕГИЙ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ: КОНЦЕПТУАЛЬНЫЙ ПОДХОД.....	49
<b>Дониёрова Зухрабону Алишер кизи</b>	
KAMBAG'AL OILALARNI TADBIRKORLIKKA JALB QILISHDA DAVLAT TOMONIDAN MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH VA BOSHQARISH (MENEJMENT) TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI...53	
<b>Bazarbaeva Asiya Shalkarbaevna</b>	
MOLIVAVIY INKLYUZIVLIK KONSEPSIYASI: BANK XIZMATLARINING KAMBAG'ALLIK DARAJASIGA TA'SIRINING NAZARIY ASOSLARI VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI.....	58
<b>Niyozov Zuxur, Abdujalilov Shexroz, Zubaydulloyeva Damira</b>	
KORXONALARNI QAYTA TASHKIL ETISH JARAYONIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBI VA BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	61
<b>Davletov Ikrom Raximberganovich</b>	
ИОРДАНИЯ КАК ТУРИСТИЧЕСКИЙ ЦЕНТР БЛИЖНЕГО ВОСТОКА.....	67
<b>Салихова Алина Муратовна</b>	
QUYOSH ENERGIYASINI KONVERSIYALOVCHI OPTOELEKTRON GELIOTRANSFORMATORLARNING FIZIK-TEXNIK ASOSLARI .....	73
<b>Axunov Qambarali, Xomidov Abdullajon, Mashrapova Irodaxon</b>	
XXI ASRDA O'ZBEKISTONDA ELEKTR ENERGIYASINI TEJASHDAGI YANGI TEXNOLOGIYALAR.....	78
<b>Xamrakulova Xilola, Yusupova Sevaraxon</b>	
HUDUDIY IXTISOSLASHUVNING SHAKLLANISH OMILLARI VA MINTAQAVIY RIVOJLANISHDAGI AHAMIYATI .....	83
<b>Sodiqova Nigora</b>	
BANKLAR TRANSFORMATSIYASI JARAYONIDA AKTIVLAR SAMARADORLIGI TAHLILI.....	89
<b>Muminov Bekzod Polvonovich</b>	
ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ КАК КЛЮЧЕВОЙ ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА .....	95
<b>Садыков Авазбек Мадаминович, Цхай Лана Александровна</b>	
MILLIY KADRLAR ZAXIRASINI SHAKLLANTIRISHNING ILG'OR XORIJ TAJRIBASI.....	103
<b>G'aniyev Elyor Sobirjonovich</b>	
DIGITALIZATION OF INSOLVENCY PROCESSES: THE ROLE OF A UNIFIED ELECTRONIC PLATFORM IN ENSURING TRANSPARENCY AND ECONOMIC EFFICIENCY .....	110
<b>Damirjon Nurmatovich Soliyev</b>	



О ПРОЦЕССАХ ЦИФРОВИЗАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	116
<b>Джумаев Аскар Хайдарович</b>	
SOLIQ MA'MURCHILIGI METODOLOGIYASINING HUQUQIY, TASHKILY VA RAQAMLI BAZASINI SHAKLLANTIRISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR.....	121
<b>Shamsiev O'ktam Sayfitdinovich</b>	
KO'P XONADONLI UYLARDA KOMMUNAL XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI VA HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	127
<b>Muminov Obidjon Odilovich</b>	
MINTAQA VA UNING HUDUDLARIDA MEHNAT OMILI HISOBIGA SANOAT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'LLARI.....	135
<b>Urazaliyev Bekzod Sultanbayevich</b>	
КЛАССИФИКАЦИЯ ИНСТРУМЕНТОВ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ С УЧЕТОМ ОПТИМИЗАЦИИ БИЗНЕС ПРОЦЕССОВ.....	141
<b>Джуманов А.А.</b>	
O'ZBEKISTONDA SOLIQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLARNI FAKTOR TAHLIL VA KO'P OMILLI REGRESSIYA ASOSIDA BAHOLASH.....	152
<b>V.I. Isroilov, V.B. Ibragimov</b>	
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В РАЗВИТИИ БАНКОВСКИХ УСЛУГ.....	158
<b>Мамутова Айгуль Калмурзаевна</b>	
QUYOSH NOVUZLARIDA SODIR BO'LUVCHI ISSIQLIK JARAYONLARINING BIR O'LCHAMLI MATEMATIK MODEL.....	165
<b>M.M. Maxmudova, J.J. Kamolov</b>	
ФАКТОРЫ, СДЕРЖИВАЮЩИЕ РАЗВИТИЕ БАНКОВСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.....	172
<b>Алиев Али Комил угли, Каримова А.</b>	
ISTE'MOL KREDITLARINING ANAMIYATI VA O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	176
<b>S. Qayumov, M. Qurbonov, A. S. Abduraxmanov</b>	
AVTOTRANSPORT XIZMATLARI SAMARADORLIK DARAJASINI OMILLI TAHLILI.....	179
<b>Raximov Azamat Hamroqulovich</b>	
MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA FIRMALARNING TASHQI BOZORLARGA INTEGRATSIYALASHUV JARAYONLARI: XORIY TAJRIBASI.....	183
<b>Ozodova Farida Zarif qizi</b>	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ЗОЛОВОАЛЮТНЫМИ РЕЗЕРВАМИ И ВНЕШНИМ ДОЛГОМ КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ УЧАСТНИКОВ ФИНАНСОВОГО РЫНКА В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ.....	187
<b>Зайналов Жахонгир Расулович, Алиева Сусанна Сейрановна</b>	
GENERATIV AI ASOSIDAGI ALGORITMIK NARX BELGILASH MEKANIZMLARI: RAQOBAT IQTISODIYOTIDA MONOPOLLASHUV XAVFI, VANO BO'YICHA SOZLASHUV MUAMMOLARI VA ANTIMONOPOL TARTIBGA SOLISH.....	192
<b>Kendjayeva Dildora Xudayberganovna, Abdumannopova Shirin Olamgir qizi</b>	
РАЗВИТИЕ ЗЕЛЁНОЙ ЭНЕРГЕТИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА.....	200
<b>Тураева А. И.</b>	
THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN KNOWLEDGE DELIVERY MODELS.....	204
<b>Daminova Barno Esanovna, Pardayeva Sevinch Sherzod qizi, Inoqov Jasur Komil o'g'li</b>	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИНСТРУМЕНТОВ ФИНАНСОВОГО АНАЛИЗА ДЛЯ МАЛОГО БИЗНЕСА И СТАРТАПОВ.....	208
<b>Ибрагимов Гайратжон Артикович</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT VA SUN'IY INTELLEKT SHAROITIDA IJTIMOY-IQTISODIY ADOLAT QOIDALARI.....	216
<b>Alimov Nasimjon Hoshimovich</b>	



ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ КАК КЛЮЧЕВОЙ ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА.....	221
<b>Садыков Авазбек Мадаминович, Цхай Лана Александровна</b>	
TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA SUN'YI INTELLEKTDAN FOYDALANISH USULLARI.....	228
<b>Daminova Barno Esanovna, Abduraimova Aziza Erkin qizi, G'ofurova Anora Zafar qizi</b>	
XALQARO MOLIYAVIY HISOBOT STANDARTLARI (IFRS)GA O'TISH JARAYONIDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI HISOBINING MUAMMOLARI.....	233
<b>Ismailov Naufal Nadirovich</b>	
RAQAMLI BANK XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA SUN'YI INTELLEKT VA BIG DATA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI.....	241
<b>Eshqobulova Charos O'roq qizi</b>	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN HIGHER EDUCATION: A GLOBAL REVIEW OF AI-POWERED TEACHING AND LEARNING.....	245
<b>Begzod Nishanov</b>	
O'ZBEKISTONDA ISLOMIY SUG'URTA (TAKAFUL) TIZIMINI JORIY ETISH IMKONIYATLARI: NAZARIY-QIYOSIY TAHLIL.....	251
<b>Abdullayev Azamat Akbar o'g'li</b>	
RAQAMLI MARKETING VA MILLIY BRENDLASH ORQALI TURIZM EKSPORTINI OSHIRISH: YAQIN SHARQ TAJRIBASI VA O'ZBEKISTON UCHUN YO'L XARITASI.....	259
<b>Bekmurodova F.A., Tolibova Aziza</b>	
MEVA-SABZAVOTCHILIK QUYI MAJMUASIDA LOGISTIKANI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	263
<b>Murodov Sherzodbek Murod o'g'li</b>	
EMPLOYEE WELL-BEING IN POST-REFORM UZBEKISTAN: A SYSTEMATIC LITERATURE REVIEW AND RESEARCH AGENDA.....	268
<b>Farida Nishanova</b>	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI EKSPORTINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI.....	274
<b>Xakimov Zafar Ibragimovich</b>	
АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ ТУРИСТИЧЕСКОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ И ДИНАМИКИ ТУРИСТИЧЕСКИХ ПОТОКОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН (2010–2024 ГОДЫ).....	278
<b>Бекимбетова Мария Махсетуллаевна</b>	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I ZANJIRIGA INTEGRATSIYALASHNING FISKAL VA IQTISODIY SAMARADORLIGI: IXTIYORIY O'TISH MEKANIZMINING MIQDORIY VAHOLANISHI.....	282
<b>Urazmatov Jonibek Musurmanovich</b>	
RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA OLIY TA'LIM XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	287
<b>Xasanova Yulduz Kayumovna</b>	
ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ДОХОДОВ РАБОТНИКОВ СФЕРЫ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ.....	291
<b>Рустамова Феруза Камоловна, Исхакова Сарвар Аюбовна</b>	
ISSIQXONA TIPLI QUYOSH QURITGICHINING ENERGETIK, EKOLOGIK VA IQTISODIY TAHLILI.....	296
<b>B.A. Hikmatov</b>	
ASSESSMENT CRITERIA FOR THE EFFECTIVENESS OF DISTANCE EDUCATION IN THE EDUCATIONAL SYSTEMS OF DEVELOPED COUNTRIES.....	301
<b>Umurzakova Gulyor Eshnazar qizi</b>	
KO'P FUNKSIYALI PV-TROMBE DEVORIDA KONSTRUKTIV YECHIMLAR, HAVO FILTRATSIYASI VA STERILIZATSIYA JARAYONLARINING SAMARADORLIKKA TA'SIRI.....	307
<b>Rahimova Volda Karim qizi</b>	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI, MAVJUD MUAMMOLARI VA ULARNI BARATARAF ETISH YO'LLARI.....	312
<b>Jiyanov Laziz Najimovich</b>	



KNOWLEDGE ASSESSMENT AND RESULTS VISUALIZATION BASED ON TEXT MINING IN E-LEARNING PLATFORMS .....	317
<b>Laziz Sayimovich Safarov</b>	
THE ROLE OF DIGITAL EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMMUNICATION CULTURE OF FUTURE TEACHERS.....	321
<b>Dilnoza Jorayevna Kuvatova</b>	
TURIZM SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASHNING ZAMONAVIY KOMPETENSIYALARI VA ULARNI SHAKLLANTIRISHNING TASHKILY-HUQUQIY ASOSLARI .....	325
<b>Sharipov Shahriyor Shamsiddin o'g'li</b>	
АКТУАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ЦИФРОВОГО РАЗВИТИЯ БАНКОВСКОЙ СФЕРЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН .....	329
<b>Бабаева Г. Я.</b>	
О'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMINI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA YOSHLARNING O'RNI.....	338
<b>Hamidova Shahzoda Odiljanovna</b>	
DIGITAL ECONOMY IN THE CONDITIONS OF CURRENT LEVEL AND DYNAMICS OF WOMEN'S ENTREPRENEURSHIP DEVELOPMENT .....	343
<b>Ibodullayeva M.S.</b>	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI HISOBI VA MAHSULOT TANNARXINING AUDITI .....	349
<b>Almardanov Muxamadi, Bolibekov Baxtiyor, Safarov Javohir</b>	
EKOLOGIK OMILLAR ASOSIDA HUDUDLARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING FAZOVIIY-AXBOROT MODELLARINI TAKOMILLASHTIRISH (QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI VA OROLBO'YI MISOLIDA) .....	355
<b>Reymova Gulmira Polatovna</b>	
O'ZBEK VA INGLIZ TILSHUNOSLIKLARIDAGI SUBYEKT VA PREDIKAT PARADIGMASI, ULARNING UMUMIY VA XUSUSIY JIHLTLARI.....	362
<b>Azamova Gulruh Akbar qizi</b>	
MINTAQALARDA IJTIMOY HIMOYA TIZIMINI STATISTIK MONITORING QILISH VA BAHOLASH METODOLOGIYASI.....	366
<b>M.Sh. Raximova</b>	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA TO'QIMACHILIK KLASTERLARINI TASHKIL ETISH VA UNING IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI.....	370
<b>Eshniyozov Asadbek Abdinazar o'g'li</b>	
QURILISH KORXONALARIDA INNOVATSION-INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISH ASOSIDA BOSHQARISHNING DOLZARB MASALALARI.....	375
<b>Egamov Raxmatillo Mirolimovich</b>	
QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INI HISOBLASH VA YIG'ISH AMALIYOTINI RIVOJLANTIRISH .....	380
<b>Bisenbaev Sharyar Quwanishbay uli</b>	
O'ZBEKISTONDA SANOAT TARMOQLARINI DIVERSIFIKATSIYALASHNING USTUVOR YO'NALISHLARI .....	387
<b>Kudratov Muhammad Rustamovich</b>	
INVESTITSIYA RISKLARINI BOSHQARISH TIZIMIDAGI MUAMMOLAR VA ULARGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI .....	393
<b>Sobirjonova Nodira Rustamjon qizi</b>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGI KOOPERATSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMLARI .....	400
<b>Abdinazarova Feruza, Abdiraximov Fayozbek</b>	
IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISHDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING O'RNI VA XUSUSIYATLARI.....	406
<b>Fayziyev Manuchehr Sharofiddinovich</b>	



О‘ЗBEKISTONDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI MOLiyALASHTIRISHDA RAQAMLI KREDITLASH VA MUQOBIL SKORING MECHANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH .....	410
<b>Hamroqulov Xushbaxt Sadriiddinovich</b>	
БЕНЧМАРКИНГ ВЫВОДА БОЛЬШИХ ЯЗЫКОВЫХ МОДЕЛЕЙ НА НРС-КЛАСТЕРАХ: ЗАДЕРЖКА, ПРОПУСКНАЯ СПОСОБНОСТЬ И ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТЬ .....	418
<b>Исмайылов Эльвиз Анвар оглу</b>	
HUDUDIY SOLIQ SALOHİYATINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI VA UNI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLAR.....	423
<b>Jurayev Xusan Atamuratovich</b>	
ONLAYN BRONLASH TIZIMLARIDA SUN‘IY INTELLEKT INTEGRATSIYASI.....	430
<b>Ismatillayeva Sitora Sayfidin qizi</b>	
PAHTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARIDA XOMASHYO TA‘MINOTI BARQARORLIGINI MUSTAHKAMLASHDA XORIJIY DAVLATLARNING ILG‘OR TAJRIBALARI.....	437
<b>Davlatov Bekzodjon Aslanxo‘jayevich</b>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MEHMONXONA XIZMATLARINI AVTOMATLASHTIRISHNING IQTISODIY AFZALLIKLARI.....	442
<b>Raxmonova Nigina Anvarovna</b>	
AVTOMOBILSOZLIK SOHASIDA PLASTMASSALARNI QAYTA ISHLASH VA ULARNI QAYTA TIKLASH UCHUN BO‘YOQNI OLIB TASHLASH USULLARI.....	446
<b>Abdusamatov Farhodjon G‘ayratjon o‘g‘li</b>	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA CHIQUINDILARNI QAYTA ISHLASH KORXONALARINI MOLiyALASHTIRISH MECHANIZMLARI .....	453
<b>Temirov Azizbek Voit o‘g‘li, Xujamurodov Asqarjon Jalolovich</b>	
O‘ZBEKISTONDA ESG MENEJMENT TIZIMI MECHANIZMLARI SANOAT KORXONALARIDA BARQAROR RIVOJLANISH OMILI SIFATIDA .....	461
<b>Nosirov Akbarxon Alixon o‘g‘li</b>	
ВКЛАД СРЕДНЕГО УПРАВЛЕНЧЕСКОГО ЗВЕНА В РЕАЛИЗАЦИЮ СТАНДАРТОВ ОБЕСПЕЧЕНИЯ КАЧЕСТВА ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ .....	465
<b>Уринов Бобур Насиллоевич</b>	
PAHTANI MASHINA TERIMIGA TAYYORLASH VA AGROTEKNIK TADBIRLARNI OLIB BORISH.....	473
<b>Shavkatbek Ravshanov, Ermatov Qobuljon, Oqyo‘lova Nigora</b>	
MINTAQALAR KESIMIDA RAQAMLI INFRATUZILMA RIVOJLANISHINING IQTISODIY TAHLILI .....	478
<b>Qurbonova Malika Axmad qizi</b>	



# MINTAQALAR KESIMIDA RAQAMLI INFRATUZILMA RIVOJLANISHINING IQTISODIY TAHLILI

## Qurbonova Malika Axmad qizi

Qarshi davlat universiteti v.b. dotsent, i.f.f.d.

Email: [malikatourism2025@gmail.com](mailto:malikatourism2025@gmail.com)

ORCID: 0009-0001-8667-4430

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbekiston mintaqalarida raqamli infratuzilmaning rivojlanish holati va uning iqtisodiy o'sishga ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqotda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari infratuzilmasi, internet qamrovi, mobil aloqa xizmatlari, keng polosali tarmoqlar hamda raqamli xizmatlardan foydalanish darajasi hududlar kesimida baholangan. Tahlil natijalari raqamli infratuzilma rivojlangan hududlarda iqtisodiy faollik, xizmatlar hajmi, investitsiyalar oqimi va mehnat unumdorligi nisbatan yuqori ekanligini ko'rsatdi. Shuningdek, hududlar o'rtasida mavjud raqamli tafovutlarning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri aniqlanib, raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** raqamli infratuzilma, raqamli iqtisodiyot, mintaqaviy rivojlanish, AKT, internet qamrovi, raqamli transformatsiya, iqtisodiy o'sish, hududiy rivojlanish.

**Аннотация:** В данной статье проведён анализ состояния развития цифровой инфраструктуры в регионах Узбекистана и её влияния на экономический рост. В исследовании оценены уровень развития информационно-коммуникационной инфраструктуры, охват интернетом, мобильной связи, широкополосных сетей и степень использования цифровых услуг по регионам. Результаты анализа показали, что регионы с более развитой цифровой инфраструктурой характеризуются более высокими показателями экономической активности, объёмов услуг, инвестиционной привлекательности и производительности труда. Кроме того, выявлено влияние цифрового неравенства между регионами на их социально-экономическое развитие и предложены научно-практические рекомендации по ускорению процессов цифровой трансформации.

**Ключевые слова:** цифровая инфраструктура, цифровая экономика, региональное развитие, ИКТ, интернет-покрытие, цифровая трансформация, экономический рост, территориальное развитие.

**Abstract:** This article analyzes the current state of digital infrastructure development in the regions of Uzbekistan and its impact on economic growth. The study evaluates information and communication technology infrastructure, internet penetration, mobile communication services, broadband networks, and the level of digital service utilization across regions. The findings indicate that regions with more advanced digital infrastructure demonstrate higher levels of economic activity, service output, investment attractiveness, and labor productivity. The research also identifies the impact of regional digital disparities on socio-economic development and provides scientific and practical recommendations aimed at accelerating digital transformation processes.

**Keywords:** digital infrastructure, digital economy, regional development, ICT, internet penetration, digital transformation, economic growth, territorial development.

## KIRISH

Jahon iqtisodiyotida raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi iqtisodiy o'sishning yangi omillarini shakllantirmoqda. Raqamli infratuzilma zamonaviy iqtisodiyotning asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, u internet tarmoqlari, telekommunikatsiya tizimlari, ma'lumotlarni qayta ishlash markazlari, bulutli texnologiyalar va raqamli platformalarni o'z ichiga oladi. Raqamli infratuzilmaning rivojlanishi iqtisodiy subyektlar o'rtasida axborot almashinuvini tezlashtirish, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish hamda hududlarning raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida hududlarda internet qamrovini kengaytirish, optik tolali aloqa tarmoqlarini rivojlantirish, elektron davlat xizmatlari ko'lamini oshirish va raqamli platformalarni joriy etish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Natijada hududlarda raqamli infratuzilmani takomillashtirish va uning qamrovini kengaytirish bo'yicha izchil rivojlanish jarayonlari kuzatilmoqda. Ayrim



mintaqalarda internet qamrovi va raqamli xizmatlardan foydalanish darajasi yuqori natijalarga erishgan bo'lsa, boshqa hududlarda ham ushbu ko'rsatkichlarni yanada yaxshilash uchun keng imkoniyatlar mavjud. Mazkur jarayon mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish sur'atlarini qo'llab-quvvatlash va yangi o'sish nuqtalarini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston mintaqalarida raqamli infratuzilma rivojlanishining iqtisodiy natijalarga ta'sirini baholash hamda hududiy rivojlanishni jadallashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli infratuzilmaning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri masalalari so'nggi yillarda xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng tadqiq qilinmoqda. Xususan, raqamli iqtisodiyot nazariyasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining iqtisodiy o'sishdagi o'rni, hududiy raqamli transformatsiya va raqamli infratuzilma samaradorligini baholash masalalari ushbu tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlarini tashkil etadi. Xorijiy olimlardan M. Castells raqamli iqtisodiyotning nazariy asoslarini ishlab chiqib, axborot texnologiyalari va tarmoq iqtisodiyotining zamonaviy jamiyat rivojlanishidagi o'rnini asoslab bergan [4]. E. Brynjolfsson va A. McAfee o'z tadqiqotlarida raqamli texnologiyalar mehnat unumdorligi, innovatsion rivojlanish va iqtisodiy o'sishni jadallashtiruvchi asosiy omillardan biri ekanligini ta'kidlaganlar [3]. N. Negroponte esa iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi natijasida axborotning strategik resursga aylanishi va iqtisodiy munosabatlarning yangi shakllari vujudga kelishini ko'rsatib bergan [7].

Raqamli infratuzilmaning iqtisodiy samaradorligini baholash bo'yicha G. Parker, M. Van Alstyne va S. Choudary tomonidan platforma iqtisodiyoti nazariyasi ishlab chiqilgan bo'lib, unda raqamli platformalar va tarmoq effektlarining iqtisodiy natijalarga ta'siri asoslangan [8]. K. Schwab tomonidan ilgari surilgan "To'rtinchi sanoat inqilobi" konsepsiyasida esa sun'iy intellekt, IoT, Big Data va bulutli texnologiyalarning iqtisodiy taraqqiyotga ta'siri yoritilgan [9]. C. Frey va M. Osborne tadqiqotlarida raqamlashtirish jarayonlarining mehnat bozori va hududiy rivojlanishga ta'siri empirik jihatdan baholangan [5]. Raqamli infratuzilma rivojlanishining hududiy jihatlari ko'plab xalqaro tashkilotlar tomonidan ham o'rganib kelinmoqda. Xususan, International Telecommunication Union (ITU), World Bank va OECD hisobotlarida internet qamrovi, mobil aloqa tarmoqlari, keng polosali internet va elektron xizmatlarning iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari bilan o'zaro bog'liqligi tahlil qilingan [20; 21; 23]. Ushbu tadqiqotlarda raqamli infratuzilma rivojlanishi investitsiyaviy jozibadorlik, biznes muhiti va hududlar raqobatbardoshligining muhim omili sifatida baholanadi.

Mahalliy olimlardan Q. Abdurahmonov raqamli iqtisodiyotning institutsional asoslari va iqtisodiy samaradorligini tadqiq qilgan [1]. R. Ayupov va G. Boltaboyeva raqamli iqtisodiyotning shakllanish omillari, uning iqtisodiyot tarmoqlariga ta'siri hamda rivojlanish istiqbollarini o'rganganlar [2]. S. G'ulomov va hammualliflar tomonidan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining milliy iqtisodiyot rivojlanishidagi o'rni va raqamli transformatsiya jarayonlarining iqtisodiy natijalari tahlil qilingan [6]. Shuningdek, O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda hududlarda raqamli infratuzilmani kengaytirish, elektron xizmatlar ulushini oshirish va iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirishning ustuvor yo'nalishlari belgilab berilgan [11; 14; 15].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi hamda hududiy statistika boshqarmalarining ma'lumotlari asosida mintaqalarda raqamli infratuzilma rivojlanishining iqtisodiy natijalarga ta'siri o'rganildi. Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasining hududlari, predmeti sifatida esa raqamli infratuzilma rivojlanishi va uning iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri tanlandi. Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiya, tizimli yondashuv, iqtisodiy-statistik tahlil, qiyosiy tahlil, guruhlash, indeks usuli hamda korrelyatsion-regression tahlil metodlaridan foydalanildi. Mintaqalarning raqamli rivojlanish darajasini baholashda internet foydalanuvchilari ulushi, keng polosali internet qamrovi, mobil aloqa abonentlari soni, optik tolali aloqa tarmoqlari uzunligi, elektron davlat xizmatlaridan foydalanish darajasi va raqamli xizmatlar hajmi kabi ko'rsatkichlar tizimidan foydalanildi.

Ko'rsatkichlarni o'zaro taqqoslash imkoniyatini yaratish maqsadida ularning qiymatlari normallashtirildi va integral baholash yondashuvi asosida mintaqalarning raqamli infratuzilma rivojlanish indeksi shakllantirildi. Shuningdek, raqamli infratuzilma ko'rsatkichlari bilan hududiy yalpi mahsulot, xizmatlar hajmi, investitsiyalar va bandlik darajasi o'rtasidagi bog'liqlik korrelyatsion tahlil yordamida baholandi. Tadqiqotning keyingi bosqichida hududlar raqamli rivojlanish darajasiga ko'ra guruhlariga ajratildi hamda ularning iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari qiyosiy tahlil qilindi. Natijalar asosida mintaqalarda raqamli infratuzilmani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari hamda iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli infratuzilma rivojlanishi bugungi kunda hududiy iqtisodiy o'sish, xizmatlar bozori kengayishi, investitsiyaviy faollik va davlat xizmatlari samaradorligini oshiruvchi muhim omil sifatida baholanmoqda. Jahon tajribasida ushbu yo'nalish AQSh, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya, Singapur va Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida universitetlar, ilmiy markazlar hamda xalqaro tashkilotlar tomonidan keng o'rganilmoqda (1-jadval).

### 1-jadval

#### Raqamli iqtisodiyot va raqamli infratuzilma bo'yicha xorijiy universitetlarda olib borilayotgan tadqiqotlar<sup>1</sup>

Mamlakat	Universitet / ilmiy markaz	Tadqiqot yo'nalishi
AQSh	MIT Initiative on the Digital Economy	Raqamli iqtisodiyot, AI, mehnat unumdorligi, biznes transformatsiyasi
AQSh	Stanford Digital Economy Lab	AI, raqamli platformalar, yangi iqtisodiy indikatorlar
Buyuk Britaniya	Oxford Internet Institute	Raqamli tafovut, internet tengsizligi, axborot geografiyasi
Janubiy Koreya	Seoul National University Global R&DB Center	Smart city, raqamli transformatsiya, ICT innovatsiyalar
Xalqaro	ITU / World Bank	Internet qamrovi, mobil keng polosali aloqa, global raqamli statistika

1-jadvalda ko'rsatib o'tilganidek, MIT Initiative on the Digital Economy raqamli davrda insonlar va biznes subyektlari qanday ishlashi, o'zaro aloqada bo'lishi va iqtisodiy farovonlikka erishishini o'rganadi. Stanford Digital Economy Lab esa raqamli iqtisodiyotning mehnat bozori, samaradorlik, AI va platformalar orqali iqtisodiyotga ta'sirini tadqiq etadi. Oxford Internet Institute "Geographies of Digital Divide" loyihasi orqali raqamli tengsizlikning hududiy va tarkibiy sabablarini o'rganadi. Seoul National University Global R&DB Center esa smart city, ICT innovatsiyalar va raqamli transformatsiya bo'yicha xalqaro hamkorlik loyihalarini olib boradi.

So'nggi yillarda internet qamrovining kengayishi va mobil aloqa texnologiyalarining rivojlanishi jahon iqtisodiyotining raqamlashtirish sur'atlarini sezilarli darajada tezlashtirdi. Xalqaro telekommunikatsiyalar ittifoqi (ITU) ma'lumotlariga ko'ra, internet foydalanuvchilari soni yildan yilga ortib bormoqda va raqamli xizmatlardan foydalanish darajasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim indikatoriga aylanmoqda. Buni jahon raqamli infratuzilmasining asosiy statistik ko'rsatkichlarida ko'rishimiz mumkin (2-jadval).

### 2-jadval

#### Jahon raqamli infratuzilmasining asosiy statistik ko'rsatkichlari<sup>2</sup>

Ko'rsatkich	Jahon bo'yicha holat
Internetdan foydalanuvchilar soni	2024-yilda 5,5 mlrd kishi
Internetdan foydalanuvchilar ulushi	2024-yilda jahon aholisining 68 %
Internetdan foydalanmayotgan aholi	2024-yilda 2,6 mlrd kishi
Mobil aloqa obunalari	100 kishiga 112 ta
Mobil keng polosali internet obunalari	100 kishiga 95 ta
O'zbekistonda internetdan foydalanuvchilar ulushi	2024-yilda 90 %

ITU ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda dunyo bo'yicha 5,5 mlrd kishi internetdan foydalangan, bu jahon aholisining 68 foizini tashkil etadi. Shu bilan birga, 2,6 mlrd kishi hali ham internetdan foydalanmaydi, bu esa global raqamli tafovut saqlanib qolayotganini ko'rsatadi. O'zbekistonda esa World Bank ma'lumotlariga ko'ra, internetdan foydalanuvchilar ulushi 2024-yilda 90 foizga yetgan.

Mamlakatimizda "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Natijada axborot va aloqa xizmatlari hajmi hamda ushbu sohada faoliyat yuritayotgan korxonalar soni izchil ortib bormoqda (3-jadval).

1 Manba: muallif ishlanmasi.

2 Manba: muallif ishlanmasi.



## 3-jadval

O'zbekiston hududlarida axborot va aloqa sohasi bo'yicha ayrim ko'rsatkichlar<sup>3</sup>

Ko'rsatkich	Qiymat
O'zbekistonda axborot va aloqa xizmatlari hajmi, 2024-yil	56 865,2 mlrd so'm
O'zbekistonda axborot va aloqa xizmatlari hajmi, 2025-yil	79 485,5 mlrd so'm
2024-yil 1-iyul holatiga axborot va aloqa sohasidagi korxonalar soni	9 999 ta
Toshkent shahri	4 752 ta
Samarqand viloyati	672 ta
Farg'ona viloyati	601 ta
Toshkent viloyati	570 ta
Qashqadaryo viloyati	370 ta

Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda axborot va aloqa xizmatlari hajmi 2024-yilda 56 865,2 mlrd so'mni, 2025-yilda esa 79 485,5 mlrd so'mni tashkil etgan. 2024-yil 1-iyul holatiga axborot va aloqa sohasida 9 999 ta korxonalar faoliyat ko'rsatgan bo'lib, ularning eng katta qismi Toshkent shahrida joylashgan. Qashqadaryo viloyatida esa ushbu yo'nalishda 370 ta korxonalar faoliyat yuritgan.

Qashqadaryo viloyati iqtisodiyotida ham axborot va aloqa xizmatlarining ulushi ortib bormoqda. Viloyatda telekommunikatsiya xizmatlari, internet tarmoqlari va raqamli xizmatlardan foydalanish hajmi kengayib, iqtisodiy faoliyatning yangi yo'nalishlari shakllanmoqda (4-jadval).

## 4-jadval

Qashqadaryo viloyati bo'yicha raqamli infratuzilma bilan bog'liq iqtisodiy ko'rsatkichlar<sup>4</sup>

Ko'rsatkich	Qiymat
2023-yilda axborot va aloqa xizmatlari sohasida yaratilgan qo'shilgan qiymat	960,6 mlrd so'm
2023-yilda o'sish sur'ati (%)	21,8 %
2024-yil yanvar–iyun oylarida tashish, saqlash, axborot va aloqa xizmatlari sohasida yaratilgan qo'shilgan qiymat	1 506,0 mlrd so'm
2024-yil yanvar–iyun o'sish sur'ati(%)	9,7 %
2024-yil yanvar–sentabrda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tarkibida telekommunikatsiya xizmatlari ulushi(%)	81,0 %
2025-yil yanvar–noyabrda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari o'sishi(%)	17,9 %

Qashqadaryo viloyatida 2023-yil yakunlariga ko'ra axborot va aloqa xizmatlari sohasida 960,6 mlrd so'm qo'shilgan qiymat yaratilgan va bu 2022-yilga nisbatan 21,8 foizga yuqori bo'lgan. 2024-yil yanvar–iyun oylarida tashish, saqlash, axborot va aloqa xizmatlari sohasida 1 506,0 mlrd so'm qo'shilgan qiymat yaratilgan. Qashqadaryo statistikasi ma'lumotlariga ko'ra, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida telekommunikatsiya xizmatlari 81,0 foizni tashkil etgan.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari raqamli infratuzilma mintaqalar iqtisodiy rivojlanishining muhim omillaridan biri ekanligini ko'rsatdi. Xorijiy tajriba va statistik tahlillar raqamli texnologiyalar, internet qamrovi hamda AKT xizmatlarining rivojlanishi iqtisodiy o'sish, investitsiyaviy faollik va xizmatlar sektori samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. O'zbekistonda raqamli transformatsiya jarayonlari jadallashib, hududlarda raqamli infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamlil ishlar amalga oshirilmoqda. Qashqadaryo viloyatida axborot va aloqa xizmatlari hajmi hamda telekommunikatsiya xizmatlari ulushi ortib borayotganligi hududning raqamli rivojlanish salohiyati yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Shu munosabat bilan hududlarda optik tolali aloqa tarmoqlarini kengaytirish, yuqori tezlikdagi internet qamrovini oshirish, elektron xizmatlardan foydalanish darajasini yuksaltirish va aholining raqamli savodxonligini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, mintaqalarda raqamli infratuzilma rivojlanishini baholashning yagona integral indeksini joriy etish hamda sun'iy intellekt va Big Data texnologiyalaridan

3 Manba: muallif ishlanmasi.

4 Manba: muallif ishlanmasi.

foydalanishni kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Mazkur chora-tadbirlar mintaqalar raqobatbardoshligini oshirish, hududlarning raqamli salohiyatini yanada yuksaltirish va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdurahmonov Q.X. Raqamli iqtisodiyot. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. – 410 b.
2. Ayupov R.X., Boltaboyeva G.R. Raqamli iqtisodiyot asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 575 b.
3. Brynjolfsson E., McAfee A. The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. – New York: W.W. Norton & Company, 2014. – 306 p.
4. Castells M. The Rise of the Network Society. – 2nd ed. – Oxford: Blackwell Publishing, 2010. – 597 p.
5. Frey C.B., Osborne M.A. The Future of Employment: How Susceptible are Jobs to Computerisation? // Technological Forecasting and Social Change. – 2017. – Vol.114. – P.254–280.
6. G'ulomov S.S., Abdullayev A.A., Xodjayev B.Y. Raqamli iqtisodiyot. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019. – 396 b.
7. Negroponte N. Being Digital. – New York: Vintage Books, 1995. – 256 p.
8. Parker G., Van Alstyne M., Choudary S. Platform Revolution. – New York: W.W. Norton & Company, 2016. – 352 p.
9. Schwab K. The Fourth Industrial Revolution. – Geneva: World Economic Forum, 2016. – 192 p.
10. Tapscott D. The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence. – New York: McGraw-Hill Education, 2015. – 432 p.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni // URL: <https://lex.uz/docs/-5030957>
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni // URL: <https://lex.uz/docs/-5841063>
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-21-son Farmoni // URL: <https://www.lex.uz/uz/docs/-8050769>
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4699-son qarori // URL: <https://lex.uz/docs/-4800657>
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-maydagi "Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-162-son qarori // URL: <https://lex.uz/docs/-6472548>
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-358-son qarori // URL: <https://lex.uz/docs/-7158604>
17. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. – Toshkent, 2025.
18. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Axborot va aloqa xizmatlari statistik to'plami. – Toshkent, 2025.
19. Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi. Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari. – Qarshi, 2025.
20. International Telecommunication Union (ITU). Facts and Figures 2024: Measuring Digital Development. – Geneva: ITU, 2024.
21. World Bank. World Development Indicators: Digital Development Dataset. – Washington DC: World Bank, 2024.
22. United Nations. E-Government Survey 2024: Accelerating Digital Transformation for Sustainable Development. – New York: United Nations, 2024.
23. OECD. Digital Economy Outlook 2024. – Paris: OECD Publishing, 2024.
24. World Economic Forum. Digital Transformation Initiative. – Geneva: WEF, 2024.
25. International Monetary Fund. Digitalization and Economic Growth: Regional Perspectives. – Washington DC: IMF, 2024.

# **muhandislik**

# **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

## **2026. № 6**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)